

**IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA ISHQ-MUHABBAT MAVZUSI**

Mamatova Oynuraxon

Andijon viloyati Asaka tumani

2-son politexnikum

Telefon: +998 93 257 15 05

mamatovaoynuraxon@gmail.com

Kalit soʻzlar: *Iqbol Mirzo she'riyati, muhabbat haqidagi she'riy to'plamlari, muhabbat mavzusi yetakchilik qilgan she'rlari.*

Annotasiya: *Ushbu maqolada Iqbol mirzo she'riyatidagi muhabbat ohanglari yetakchilik qilgan she'rlari haqida soʻz boradi, ishqiy mavzudagi she'rlari misolida Iqbol Mirzoning ijodiy faoliyatitga nazar tashlanadi.*

Dunyoda hech bir narsa oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi. Hattoki eng kichik zarrachaning ham yaralishida nimadir turtki yoki taʼsir koʻrsatgan boʻlsa kerak, hoynohoy. Bu fikrni she'riyatga muqoyasa qilsak, koʻngil tuygʻularining yaralishi qalbu shuurimizni junbushga kelarli darajada hayajonga solsa, tasavvurimizni boshqa – nomaʼlum bir olam sinoatlarining mantiqini anglashga daʼvat etsa, demak, ushbu hodisaga shoir oʻz maqsadlarini toʻliq singdira olganligi, ayni paytda, “xos ohang”ni tanlay bilganligi ayonlashadi. Shoir – soʻz tanlaydi. Soʻzning ruhi va kishi koʻngliga taʼsir etuvchi jihatlari rang-barang va serjilo boʻlgandagina haqiqiy sheʼr boʻla oladi. Negaki, sheʼr shoir anglagan, his qilgan olamning mevasi. Bu olamga kirib borish bizni nafaqat ijodkor olamiga yaqinlashtiradi, balki dunyoning sir-sinoatlarini tushunishga zamin hozirlaydi. Ruhiyatning cheksiz imkoniyatlari borligidan ogoh etadi. Muhimi, uni qanday va qay tariqa ifodalay bilishda deb oʻylayman.

Oʻzbek she'riyatining osmonidagi yorqin bir yulduz, oʻziga xos ovoz egasi Iqbol Mirzoning dastlabki she'riy to'plamlari “Yurakning shakli”, “Koʻngil”, “Seni sogʻinaman” kabi ixcham to'plamlari edi. Soʻng oʻndan ortiq kitoblari chiqdi. Oshiqlik, ishq motivi – Iqbol ijodining ilk bosqichiga xos. Shunday she'rlarida uning



ko'ngli, yuragining shakli, sog'inchi namoyon bo'ladi.¹ Inson tafakkuri tiniq, ruhi salomat bo'lmasa, o'tkinchi dunyoning shafqatsiz taloto'plari ichra izsiz yo'qolishi, bamisoli charxpalakdek tez aylanayotgan tirikchilik tegirmonida maydalanib ketishi hech gapmas. Zero, ishq-muhabbatni kuylagan, shu orasta tuyg'uni qadrlagan she'riyat go'zal bo'ladi. Chunki odam farzandi "hamisha bir hisga asir ekan" (Abdulla Oripov ta'biri). Haqiqatan, muhabbat inson vujudidagi bebaho gavhardir. Jahon adabiyoti, umuman, insoniyat yaratilgandan to hozirgacha har kim uchun eng latif, qiziq va eng hayajonli mavzu bu – muhabbatdir. Muhabbatdan ayro asar – kementik, ishqdan ayro ko'ngil – yetim. Ishq yonida hijron, visol va sog'inchlar ham bor.

*Yelkamga yuk tashladi osmon,
Bu azoblar qo'ygaymi omon?!
Tushun, seni sog'indim yomon,
Seni bugun ko'rmasam bo'lmas.*

Yor sog'inchi qalbgaga tiriklik suvini olib kiradi; hissiz yurak tosh qotadi. Sevgi satrlari – Iqbol she'rlarining o'qildizi. Ayniqsa, yoshlikning qaynoq pallalarida yozgan har bir she'rida ayni mavzu badiiy talqin etiladi. Umid va e'tiroz, o'pkalanish va chorlov, ikkilanish va quvonish, dadillanishu duduqlanish – bularning barchasi ishq dardiga muhtalo odam ko'ngil holatining kontrast sifatlari. Mavlono Abdulla Qodiriyning nurli qahramoni Mirzo Anvar fikricha: "Ishq davomi, avom o'ylagancha, vasl emas – hajrdir"². Zero, vasl ishq o'tini so'ndirguvchi, hajr esa kamolatkaga erishdirguvchidir". Iqbol Mirzo o'sha tuyg'uni qat'iy qilib:

*Bulutlar uchrashdi chaqmoqlar otib,
Chaqmoq – sog'inchlarning oydin gulimi?
Yomg'ir shivirladi to'kilayotib:
Visol – muhabbatning go'zal o'limi,³
deb yozadi.*

Iqbol Mirzo ijodida muhabbat mavzusidagi she'rlarning ajoyib namunalarini uchratish mumkin. Masalan, Iqbol Mirzoning «Farishta», «Yonimga kel, yorim»,

¹ Bahodir Karimov. Yoshlik jurnali. 2017 9-son

² Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" 2019

³ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. - Toshkent, 2007. - B. 72



«Seni sog'inib», «Istaysizmi-yo'qmi», «Muhabbat», «Ko'nglingda nima bor?», «Seni bugun ko'rmasam bo'lmas» kabi she'rlarida sof-samimiy,, pokiza muhabbat, unga intilish [va shu orqali tozargan qalb](#), ruhi poklangan jism, botini harirlashgan banda, [majoziy muhabbatdan ilohiy ruh](#), ilohiy go'zallik izlagan inson tasviri gavdalanadi. Bu she'rlarning ayrimlari qo'shiq sifatida ijro etilib xalq qalbidan joy olishga ham ulgurgan. Hamma zamonlardagi kabi davrimiz she'riyatida ham muhabbat mavzusi o'zining etakchilik mavqeini saqlab qoldi, yangidan yangi ijod namunalari hisobiga kengaydi. Muhabbat mavzuidagi she'rlar zamirida yotgan badiiy-falsafiy yuk ramziy ishora va obrazli ifodalarga boy bayon tarzi bilan yanada teran ma'no kasb etdi. Shuningdek, mumtoz she'riyatimizda [mavjud ilohiy va majoziy ishq](#), yor jamolining Alloh jamoli tajallisi ekanligi, oshiq o'zini ma'shuqa bilan bir deb bilishi kabi tasavvufiy g'oyalar aks etgan she'rlarining tez-tez ko'zga tashlanib turishi ham bugungi o'zbek she'riyati uchun xos yana bir xususiyatdir.

Iqbol Mirzoning "Chorlasang" sarlavhali she'rida serjilo badiiyat va go'zal tashbehlar o'z ifodasini topgan. Ushbu she'rdan o'rin olgan "Ismimni tutmasang qushligim bekor", "Men bilan qo'shib qariydi bahor", "Men qayga qo'yay bu ulkan bahorni", "Bilaman, qismatim ko'zingdek qaro" kabi misralar shoir qalamining sehridan dalolat. Ijodkorning she'riy namunalarida "Sizni men o'zimdan asradim", "Yuragimga egizak qiz", "Jon saqladim sizni etib yod" kabi quyma satrlarga duch kelamiz. Shoir "Ariqlar yuzida" sarlavhali she'rida shunday yozadi:

*Muzlar quchog'ida isindi vido,
Uzilgan tor kabi ajralishdik biz.
Siz mag'rur ketdingiz uygacha, ammo
Nechun yig'lab bordi etiklaringiz?...⁴*

Yuqorida qalamga olingan badda shoir oshiqlarning ayrilig'ini torning uzilishiga qiyoslaydi. Vidodan entikib, "yig'lab borayotgan etiklar" tasviri beixtiyor

⁴ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. - Toshkent, 2007. - B. 69.



ko'nglimizda titroq uyg'otadi. Bu ilohiy dardni o'z qalbimizda his qilamiz. She'riyatning asl mohiyati ham shunda emasmi? Axir she'riyat butun bir

insoniyat quvonchini, dardini, baxtini, iztirobini o'zida mujassam etib, unga oshno bo'lgan har bir inson qalbida ana shu hislarni uyg'otadi va bu bilan qalbni poklaydi. Ijod va mutolaa, chin ma'noda, ruhiy poklanish demakdir. Iqbol Mirzo she'riyati ham kitobxonlar qalbida yuksak tuyg'ularga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtirom tuyg'usini shakllantirib, qalblarni poklikka undaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. - Toshkent, 2007. - B. 69.
2. Bahodir Karimov. Yoshlik jurnali. 2017 9-son
3. Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon", Sharq nashriyoti, 2018